

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR

Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

ORCID:0000-0002-5228-6923

E-mail: muhabbatxontojiyeva11@gmail.com

Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li

Qo‘qon Universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy tadqiqot O‘zbekistonda hududiy iqtisodiy rivojlanishning 2020–2024-yillardagi holatini tahlil qilish hamda markaziy va chekka hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda yalpi hududiy mahsulot (YHM), aholi jon boshiga real umumiy daromad, bandlik va kambag‘allik darajasi kabi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida mintaqalar kesimidagi o‘zgarishlar baholandi. Statistika tahlil usullari, jumladan Shapiro–Wilk testi, logarifmik transformatsiya, ANOVA va Kruskal–Wallis testlari yordamida indikatorlar o‘rtasidagi tafovutlar ishonchli ravishda aniqlandi. Olingan natijalar hududiy rivojlanish bo‘yicha umumiy ijobiy sur‘atlar mavjudligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ayrim hududlar o‘rtasida hali ham sezilarli iqtisodiy nomutanosibliklar mavjud. Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlarining yetakchi roli aniqlangan bo‘lib, boshqa ko‘plab viloyatlar esa rivojlanishning nisbatan past bosqichida qolmoqda. Shu bilan birga, kambag‘allik darajasining sezilarli kamayishi, daromadlar o‘sishi va bandlik sohasida tiklanish kuzatilgani iqtisodiy islohotlarning ijobiy natija berayotganidan dalolat beradi. Tadqiqot xulosalari hududiy siyosatni takomillashtirish, har bir mintaqaning o‘ziga xos imkoniyatlarini inobatga olgan holda iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqishga amaliy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Hudud, rivojlanish, aholi, YHM, ishsizlik, bandlik, kambag‘allik, daromad, markaz, iqtisodiy nomutanosiblik, sanoat, strategiya, barqarorlik.

Аннотация

Данное исследование направлено на всесторонний анализ социально-экономического развития регионов Узбекистана за 2020–2024 годы, с акцентом на различия между центральными и периферийными территориями. В качестве ключевых индикаторов были выбраны валовой региональный продукт (ВРП), реальный доход на душу населения, уровень занятости и уровень бедности. С использованием методов Шапиро–Уилка, логарифмического преобразования, а также критериев ANOVA и Краскела–Уоллиса, были выявлены значимые межрегиональные различия. Результаты показали устойчивую положительную динамику в большинстве регионов, однако различия в уровне доходов, занятости и бедности по-прежнему сохраняются. Город Ташкент, а также Наманганская и Ташкентская области продемонстрировали наивысшие показатели экономического роста, в то время как ряд других регионов отстают. Тем не менее, общее снижение уровня бедности и рост доходов свидетельствуют о

положительном влиянии проводимых реформ. Полученные выводы могут быть использованы для совершенствования региональной политики с учетом уникальных условий каждого региона.

Ключевые слова: регион, развитие, население, ВРП, безработица, занятость, бедность, доход, центр, экономический дисбаланс, промышленность, стратегия, устойчивость.

Abstract

This study presents a comprehensive analysis of regional socio-economic development in Uzbekistan from 2020 to 2024, with a particular focus on disparities between central and peripheral areas. Key indicators analyzed include Gross Regional Product (GRP), real per capita income, employment rate, and poverty level. By applying statistical techniques such as the Shapiro–Wilk test, logarithmic transformation, ANOVA, and the Kruskal–Wallis test, the research identifies significant differences across regions. Findings reveal a generally positive trend in development, though economic gaps remain prominent, particularly in income distribution and employment rates. Tashkent city, along with Navoiy and Tashkent regions, lead in economic performance, while other areas lag behind. Notably, the national decline in poverty and rising incomes demonstrate the tangible impact of economic reforms. The study offers valuable insights for policymakers in tailoring region-specific development strategies to ensure balanced and inclusive growth.

Keywords: Region, development, population, GRP, unemployment, employment, poverty, income, center, economic imbalance, industry, strategy, sustainability.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillik yillaridan boshlab hududiy iqtisodiy rivojlanish siyosatini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab kelmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida yirik sanoat markazlari vujudga kelgan bo‘lsa-da, hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridagi tafovutlar bugungi kunda ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda [5], [12]. Ayni vaqtda markaziy hududlar infratuzilma, ish o‘rinlari va investitsiya oqimi nuqtai nazaridan yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, ko‘plab chekka hududlarda iqtisodiy faollik past darajada saqlanmoqda [14].

Hududlar o‘rtasidagi bunday tafovutlar bir necha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, mehnat migratsiyasi oqibatida iqtisodiy imkoniyatlar teng taqsimlanmayapti, bu esa markazga bosimni oshirib, chekka hududlarda aholining ijtimoiy holatini zaiflashtiradi. Bundan tashqari, davlat resurslarining nomutanosib taqsimlanishi, bandlikdagi farqlar va infratuzilma taqchilligi hududiy tengsizlikni kuchaytirmoqda [9], [17].

Bunday sharoitda hududlar kesimida mavjud iqtisodiy holatni tahlil qilish, farqlarni aniqlash va barqarorlikka xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi va “O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida har bir hududning nisbiy ustunliklarini hisobga olgan holda maxsus iqtisodiy yondashuvlar shakllantirilmogda [21], [22]. Bu yondashuvlar mintaqaviy resurslardan oqilona foydalanish, sanoat va xizmat ko‘rsatish

tarmoqlarini diversifikatsiya qilish orqali hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda 2020–2024-yillar oralig‘ida hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni tizimli tahlil qilish, ularning rivojlanish sur‘atlarini baholash va markaziy hamda chekka hududlar o‘rtasidagi asosiy tafovutlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida yalpi hududiy mahsulot (YHM), aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi, bandlik va kambag‘allik darajasi kabi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar statistik metodlar asosida tahlil qilindi [2], [4], [19].

Shuningdek, tahlil natijalarini yanada ishonchli qilish uchun ma’lumotlarning normal taqsimlanganligi Shapiro–Wilk testi orqali tekshirildi, zarur hollarda logarifmik transformatsiya qo‘llandi va ANOVA hamda Kruskal–Wallis testlari yordamida hududlar o‘rtasidagi farqlar statistik ishonch bilan aniqlab berildi [26]. Ushbu yondashuv, mamlakat hududlari rivojlanishida mavjud bo‘lgan imkoniyatlar va cheklovlarni ilmiy asosda baholash imkonini beradi va hududiy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalasi xalqaro iqtisodiy siyosatning doimiy dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ko‘plab tadqiqotlar hududiy boshqaruvning samarali tashkil etilishi orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish mumkinligini tasdiqlaydi. Masalan, Lambisia o‘z ishida mintaqaviy iqtisodiy boshqaruvning samarador modeli va infratuzilma sarmoyalarining iqtisodiy o‘shishga bevosita ta’sirini tahlil qilgan [8]. U mintaqaviy hukumatlarning iqtisodiy strategiyalardagi roli va ularning iqtisodiy tenglikka ta’sirini keng yoritadi.

Xalqaro tajriba, xususan Luo Kui tomonidan Xitoyda o‘rganilgan makoniy farqlanish modeli, iqtisodiy o‘shishning hududiy nomutanosibligiga yo‘naltirilgan [10]. “Spatial Field” yondashuvi orqali u iqtisodiy salohiyatning notekis taqsimlanishi va ishlab chiqarishning regional asimmetriyasini ochib bergan. O‘xshash yondashuvdan Livchits ham foydalanib, Rossiyada foydali qazilmalar sanoati bilan boshqa tarmoqlarning hududiy joylashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik asosda tahlil qilgan [9].

Yevropa mintaqalariga oid tadqiqotlar ham bu borada muhim ma’lumotlar beradi. Pawlas tomonidan olib borilgan Polsha bo‘yicha tahlillar, ayniqsa periferik hududlardagi iqtisodiy faollik va ishsizlik darajalarining milliy o‘rtachadan chetga chiqishini ko‘rsatadi [14]. Buryachenko va hammualliflari esa Polsha, Ispaniya hamda Ukrainada YAIM, bandlik va migratsiya kabi ko‘rsatkichlar orqali hududiy nomutanosibliklarni statistik yondashuv bilan chuqur tahlil qilgan [25].

Siyosiy omillarning ham iqtisodiy tengsizlikdagi o‘rni bor. Luca va Rodríguez-Pose Turkiya misolida davlat investitsiyalarining hududiy taqsimlanishini regressiya asosida o‘rgangan [11]. Ular investitsiya oqimlarining nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy determinantlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Marokashda olib borilgan Aguenane tadqiqotida esa ijtimoiy taraqqiyot darajasidagi tafovutlar 19 indikator asosida tahlil qilinib, regional inson taraqqiyoti

indeksi (RHDI) ishlab chiqilgan [1]. Bunda sog'liqni saqlash, ta'lim va infratuzilma asosiy omillar sifatida ajratilgan. Hindiston bo'yicha Ivanova tomonidan taklif etilgan yondashuvda esa iqtisodiy tarmoqlar kesimida YAİM ni baholash, regional indeksni klaster asosida ajratish orqali amalga oshirilgan [6].

O'zbekiston kontekstida esa Mahmudov tomonidan hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning statistika asosida tahlili amalga oshirilgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iqtisodiy natijalar asosida hududiy farqlar aniqlangan [12]. Tojiyevaning bir nechta ishlari esa katta ma'lumotlar tahlili, matematik statistika hamda ekologik-iqtisodiy barqarorlikni baholashga yo'naltirilgan [26], [27].

Xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha Musagaliev va Abraev hududiy o'sish sur'atlari va xizmat tarmoqlari tuzilmasini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali tahlil qilgan [13]. Bundan tashqari, Kuvandikov tomonidan oilaviy tadbirkorlik indeksleri ishlab chiqilib, chekka hududlarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish yo'llari ko'rsatilgan [7].


Shuningdek, Shao O'zbekiston iqtisodiyotini ekologik va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlab, "Belt and Road" tashabbusi doirasida hududlararo integratsiyani kuchaytirish zaruratini bildirgan [17]. Uning fikriga ko'ra, agar mavjud imkoniyatlar resursga asoslangan yondashuv bilan uyg'unlashtirilsa, O'zbekiston mintaqaviy yetakchilik darajasiga chiqishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yalpi hududiy mahsulot (YHM) iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u hududdagi ishlab chiqarish hajmini, iqtisodiy faollik darajasini va barqarorlikni aks ettiradi [20]. Quyida 2020–2024-yillar oralig'ida YHMning o'rtacha qiymati va standart og'ishi o'rganilib, ularning dinamikasi tahlil qilinadi (1-rasm).

YHMning o'rtacha qiymati so'nggi besh yil davomida izchil o'sib borgan. 2020-yildagi 41685,99 ko'rsatkich 2024-yilga kelib 90715,77 ga yetgan, bu esa so'nggi besh yillikda 2,2 baravardan ko'proq o'sish demakdir. Ushbu holat hududiy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish hajmining oshganini ko'rsatadi.

YHMning standart og'ishi ham o'suvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2020-yilda 23910,75 bo'lgan standart og'ish 2024-yilda 63373,44 ga yetgan, ya'ni hududlar o'rtasidagi tafovut qariyb 2,65 barobarga ortgan. Bu shuni anglatadiki, hududlar iqtisodiy rivojlanish sur'atlarida nomutanosiblik mavjud bo'lib, ayrim hududlar tez rivojlangan bo'lsa, boshqalari sekin o'smoqda, ya'ni hududiy farqlanish va iqtisodiy beqarorlik yil sayin oshib bormoqda.



1-rasm. 2020-2024-yillar kesimida O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi YHM o'rtacha qiymati va standart og'ishi[19]¹(mlrd.so'm)

2024-yil ma'lumotlariga asosan Qoraqalpog'iston respublikasi, Toshkent shahri va 12ta viloyatlarni YHM hajmi bo'yicha quyidagicha guruhlariga ajratdik: bunda [0-50 000) past, [50 000- 100 000) o'rta daraja, [100 000-150 000) yuqori, [150 000 va undan yuqori] juda yuqori darajalarni anglatadi(1-jadval).

1-jadval.

YHM hajmi bo'yicha hududlarning guruhlanishi va chastotalari(2024-yil)²

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahri juda yuqori ko'rsatkich bilan

Toifa Guruhlar	Hududlar (mlrd.so'm)	Chastota
Past [0-50 000)	Sirdaryo (28003,3); Jizzax (43057,9); Qoraqalpog'iston (45658,5)	3
O'rta [50 000- 100 000)	Xorazm (51261); Surxondaryo (54354,1); Namangan (68915,7); Buxoro (71560,4); Qashqadaryo (80658,3); Andijon (90522,1); Farg'ona (91333); Samarqand (99866,1);	8
Yuqori [100 000- 150 000)	Navoiy (117297,8); Toshkent v. (146385,2)	2
Juda yuqori [150 000 va undan yuqori]	Toshkent shahri (281147,4)	1

alohida ajralib turibdi; Navoiy hamda Toshkent viloyatlari ham YHM hajmiga ko'ra yuqori darajani egallagan; ko'pchilik viloyatlar esa o'rtacha guruh (50 000–100 000) oralig'ida joylashgan bo'lsa, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston respublikasi past darajani egallagan. Bu hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning

¹ Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi


kattaligini va investitsiya hamda rivojlanish darajasidagi farqlarni yaqqol namoyon qiladi.

Shapiro-Wilk testi natijalariga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot hajmi ko‘rsatkichlari normal taqsimlanmaganligi aniqlandi ($p=0.000$). Logorifmik transformatsiya amalga oshirildi shundan so‘ng normal taqsimlanmaganlik holati kuzatildi ($p=0.43924$). Anova testi natijalariga ko‘ra, hududlar orasida YHM hajmi bo‘yicha sezilarli farq mavjudligi ($F=4.45$, $p=0.0000$) aniqlandi.

Bandlik darajasi tahlili

Bandlik darajasi mehnat bozorining umumiy holati va iqtisodiy faollik darajasini ifodalaydi [16].

Quyida 2019-2023-yillar oralig‘ida respublika hududlarida o‘rtacha bandlik darajasining dinamikasini va hududlar bo‘yicha farqlarini o‘rtacha bandlik ko‘rsatkichi, standart og‘ish va hududiy taqsimot tahlili asosida ko‘rib chiqiladi (2-rasm).



2-rasm. 2019-2023-yillar kesimida Bandlik darajasi o‘rtacha qiymati va standart og‘ishi (%da)¹

O‘rtacha bandlik darajasi 2019-yilda 68.25% bo‘lsa, 2023-yilda 67.75% ni tashkil etgan. 2020-yilda bandlik darajasi 66.16% ga tushib ketgan, bu esa pandemiya ta‘sirida ish o‘rinlarining qisqarishi va iqtisodiy faollikning pasayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2021-2023-yillarda bandlik darajasi asta-sekin tiklangan, ammo 2019-yilgi darajaga yetib bormagan. Bu shuni anglatadiki, pandemiyadan keyin iqtisodiyot tiklangan bo‘lsa ham, bandlik darajasi hali ham to‘liq tiklanmagan.

2019-yilda bandlik darajasi standart og‘ish 4.16% bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 5.17 %ga yetgan. Standart og‘ishning ortishi hududiy farqlarning

¹ Muallif ishlanmasi

kengayganligini bildiradi, ya'ni ayrim viloyatlarda bandlik darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lsa, ba'zi hududlarda pastligicha qolgan. Bu iqtisodiy nomutanosiblik va mintaqaviy bandlik siyosatining turlicha amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

2-jadval.

**Bandlik darajasi bo'yicha hududlarning guruhlanishi va chastotalari
(2023-yil)¹**

Toifa Guruhlar (%)	Viloyatlar (%)	Chastota
Past [61,9-67]	Qashqadaryo (61,9); Qoraqalpog'iston (62,9); Sirdaryo va Surxondaryo (63,8); Samarqand (65); Namangan (65,9); Jizzax (66,3); Xorazm (66,9)	8
O'rta [67-72,1]	Farg'ona (68,4); Buxoro (68,7); Navoiy (69,8); Andijon (70,6);	4
Yuqori [72,1-77,2]	Toshkent v. (72,2)	1
Juda yuqori [77,2-82,3]	Toshkent shahri (82,3)	1

Ushbu taqsimotdan ko'rinib turibdiki, aksariyat hududlarda (8 ta) bandlik darajasi 61,9–67% oralig'ida joylashgan, eng past darajadagi bandlik ko'rsatkichi 61,9 %ga teng bo'lib, Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Farg'ona, Buxoro, Navoiy va Andijon viloyatlarida bandlik ko'rsatkichi o'rta darajada, Toshkent viloyatida bandlik darajasi yuqori, Toshkent shahri esa yetakchi bo'lib, 82,3% ko'rsatkichga ega. Toshkent shahar va Qashqadaryo viloyati o'rtasida ish bilan ta'minlanish darajasi uchun variatsiya qulochi $R=20,4\%$ ga teng bo'lib, aytish mumkinki bandlik bo'yicha markaz va chekka hududlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud.

2010-2023-yillar ma'lumotlariga asosan o'tkazilgan Shapiro Wilk testi natijalariga ko'ra bandlik ko'rsatkichlari normal taqsimlanmaganligi aniqlandi. Logorifmik transformatsiya amalga oshirildi biroq normal taqsimlanmaganlik holati yaxshilanmadi. Shundan so'ng o'zgaruvchilar qiymatlari orasidagi farq mavjudligi Kruskal-Wallis testi orqali tekshirildi. Kruskal-Wallis testi natijalari shuni ko'rsatdiki, hududlar orasida Bandlik darajasi bo'yicha sezilarli farqlar mavjud ($\chi^2=157.531$, $p=0.0001$) va statistik ishonchli.

2020–2024-yillar davomida YHMning o'rtacha qiymati barqaror o'sishni ko'rsatgan bo'lsa-da, standart og'ishning keskin oshishi iqtisodiy ko'rsatkichlardagi beqarorlik va hududlar o'rtasidagi farqlanishning ortganini bildiradi. Hududiy taqsimot natijalari markaz va boshqa hududlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, hududlarda aholi bandlik darajasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutlar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda muhim muammo sifatida ko'rinadi. Ushbu tendensiya iqtisodiy siyosatda hududiy muvozanatni ta'minlash va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi tahlili


Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlaridan yana biri bu aholi umumiy daromadlari hisoblanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Aholining umumiy daromadlariga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi, hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda uy xo‘jaligi yoki uning alohida a‘zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi[4].

Aholining real umumiy daromadlari – aholining nominal umumiy daromadlarini tegishli davr uchun iste‘mol narxlari indeksiga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi[2].

Quyida 2020–2024-yillar oralig‘ida Aholi jon boshiga real umumiy daromadlarning o‘rtacha qiymati va standart og‘ishi o‘rganilib, ularning dinamikasi tahlil qilinadi (3-rasm).



3-rasm. 2020-2024-yillar kesimida Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar o‘rtacha qiymati va standart og‘ishi (yillik, ming so‘m)¹

Diagrammadan ko‘rish mumkinki, aholi daromadlarining doimiy o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2020-yilda o‘rtacha jon boshiga real umumiy daromad 11 593.09 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 22 379.14 ming so‘mga yetgan, ya‘ni so‘nggi besh yil ichida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi qariyb ikki baravar oshgan. Har yili daromadlarning o‘shish sur‘ati ortib borgan, eng katta o‘shish esa 2023-2024-yillar oralig‘ida kuzatilgan. Shu bilan birga, standart og‘ishning oshib borishi aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi daromad tafovutlarining kuchayishini ko‘rsatadi. 2020-yilda turli hududlarda istiqomat qiluvchi aholi daromadlari o‘rtasidagi farq 4230,596 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 10594,22 ming so‘mga yetgan, ya‘ni 2,5 barobarga ortgan. Bu esa o‘z navbatida hududiy nomutanosiblik ortib borayotganini va hududlar o‘rtasida daromadlar bir-biridan keskin farqlanayotganligini ko‘rsatadi.

2024-yil ma‘lumotlariga asosan Qoraqalpog‘iston respublikasi, Toshkent shahri va 12ta viloyatlarni aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi bo‘yicha

¹ Stat.uz sayt ma‘lumotlari asosida tuzilgan

quyidagicha guruhlarga ajratdik: bunda [10 000-20 000) past, [20 000- 30 000) oʻrta daraja, [30 000-40 000) yuqori, [40 000 va undan yuqori] juda yuqori darajalarni anglatadi(3-jadval).

3-jadval.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (2024-yil) boʻyicha hududlarning guruhlanihi va chastotalari¹

Toifa Guruhlar	Hududlar (ming soʻm)	Chastota
Past [10 000 — 20 000]	Namangan (15370,3); Qoraqalpogʻiston (15402,4); Surxondaryo (16236,8); Qashqadaryo (16893,9); Fargʻona (17517,1); Sirdaryo (17574,3); Samarqand (17593,3); Jizzax (17737,6)	8
[20 000-30 000]	Andijon (20158,4); Xorazm (21464); Toshkent v. (22952,1); Buxoro (24858,1)	4
[30 000- 40 000]	Navoiy (35107,2)	1
[40 000 va undan yuqori]	Toshkent shahri (54442,4)	1

Guruhlash taqsimotidan koʻrinib turibdiki, respublikaning aksariyat viloyatlari (8ta) aholisi past darajadagi real umumiy daromadlarga ega boʻlib, oʻrtacha daromad yillik 17 mln.soʻm atrofida. Bu viloyatlar iqtisodiyoti hali ham oʻsish bosqichida ekanligini koʻrsatadi. Oʻrta darajaga kiruvchi viloyatlar 4 ta boʻlib, bular Andijon, Xorazm, Toshkent viloyati va Buxoro viloyatlari. Ushbu guruhda viloyatlar soni oz boʻlsa-da, oʻrtacha daromad 22 mln.soʻmdan yuqorida, bu mintaqalar iqtisodiy rivojlanishda salmoqli oʻrin egallayotganini koʻrsatadi. Navoiy viloyatida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 35 mln.soʻmdan yuqori daromadlarni ifodalaydi, bu uning iqtisodiy rivojlanishini koʻrsatadi. Ushbu guruhda faqat bitta viloyat joylashgani sababli, bu viloyatning ahamiyati oshadi. Toshkent shahri aholisi daromadlari 54 mln.soʻmdan yuqori boʻlib, u mamlakatning eng rivojlangan va urbanizatsiyalashgan hududi hisoblanadi. Bu hudud iqtisodiy imkoniyatlar, infratuzilma va ish joylarini yaratuvchi asosiy markazdir.

Oʻzbekiston viloyatlari orasida aholi umumiy daromadlar boʻyicha farqlar aniq koʻrinadi. [10 000 — 20 000) diapazonidagi viloyatlar iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichida, [20 000 — 30 000) guruhidagi viloyatlar esa oʻsish surʼatida. Toshkent shahri esa mamlakatning eng rivojlangan hududi boʻlib, iqtisodiy jarayonlarning markazi sifatida xizmat qiladi hamda chekka hududlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlarga ega, masalan Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi Namangan viloyatida eng past boʻlib, markaz bilan taqqoslasak nisbiy farq 3,5 barobardan ham ortiq ekanligini koʻramiz. Bu tahlil respublika hududlari oʻrtasidagi iqtisodiy farqlarni va rivojlanish potensialini koʻrsatadi hamda aytish mumkinki markaz va boshqa hududlar oʻrtasidagi farqlar yuqori.


¹ Muallif ishlanmasi

Shapiro-Wilk testi natijalariga ko‘ra aholi real umumiy daromadlari hajmi ko‘rsatkichlari normal taqsimlanmaganligi aniqlandi ($p=0.000$). Logorifmik transformatsiya amalga oshirildi, shundan so‘ng normal taqsimlanganlik holati kuzatildi ($p=0.18767$). ANOVA testi natijalariga ko‘ra, hududlar orasida aholi real umumiy daromadlar hajmi bo‘yicha sezilarli farq mavjud ($F=4.45$, $p=0.003 < 0.05$) va statistik ishonchli ekanligi aniqlandi.

Kambag‘allik darajasi tahlili

Kambag‘allik darajasi — bu aholi orasida minimal hayotiy ehtiyojlarini qondira olmaydigan, ya‘ni oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va asosiy xizmatlardan foydalana olmaydigan qatlamning ulushini ifodalovchi ko‘rsatkichdir[3]. Hududiy iqtisodiy farqlarni tahlil qilish jarayonida kambag‘allik darajasi ham muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

2021-2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi sezilarli darajada tushgan, ushbu ko‘rsatkich 2021-yilda 17%ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 8,9 % bo‘lgan, ya‘ni respublika bo‘yicha kambag‘al aholi ulushi qariyb 2 barobarga kamaygan. Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida kambag‘allik darajasining o‘zgarishi quyidagi natijalarni ko‘rsatdi (4-rasm):



4-rasm. 2021-2024-yillar kesimida O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi Kambag‘allik darajasi (%da)¹

2021–2024-yillar davomida O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida kambag‘allik darajasining izchil kamayishi kuzatilmoqda. Masalan, Sirdaryo viloyati 2021-yilda 30,5% kambag‘allik darajasiga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib

¹ Jahon banki ma‘lumotlari asosida yaratildi

11,3% gacha pasaydi. Toshkent viloyatida ham sezilarli darajada pasayish kuzatildi: 22,7% (2021) dan 8% (2024) gacha.

Kambag'allik darajasi bo'yicha Kruskal-Wallis testi natijalarga ko'ra ($\chi^2=28.490$, $p=0.0187$) hududlarning kambag'allik darajasi o'rtasida sezilarli farq mavjud va statistik ishonchli.

Respublika hududlarini kambag'allik darajasi qiymatlari hamda o'zgarish sur'atlariga qarab quyidagicha taqsimlash mumkin(4-jadval):

4-jadval.

Kambag'allik darajasi bo'yicha hududiy taqsimot (2021-2024)¹

Toifalar	Viloyatlar	Chastota
Qiymat bo'yicha (2024)		
Kambag'allik darajasi eng yuqori darajadagi hududlar	Xorazm (11,9%) Sirdaryo (11,3%) Jizzax (11,8%) Qoraqalpog'iston Respublikasi (10,8%)	4
Kambag'allik darajasi eng past darajadagi hududlar	Navoiy viloyati (5,7%) Toshkent shahri (7,3%) Toshkent viloyati (8%)	3
O'zgarish bo'yicha(2021-2024)		
Eng katta pasayish kuzatilgan hududlar	Sirdaryo viloyati (19,2 % pasayish) Toshkent viloyati(14,7 % pasayish) Jizzax viloyati (9,3 % pasayish)	3
Eng sekin pasayish kuzatilgan hududlar	Toshkent shahri (0,8 % pasayish), Surxondaryo viloyati (4% pasayish), Buxoro viloyati (5,8% pasayish)	3
Ortish kuzatilgan hududlar	Farg'ona viloyati (4,7% o'sish) Navoiy viloyati (1% o'sish)	2

Kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan hududlar to'rtta bo'lib, bularning ichida Xorazm viloyati eng yomon ko'rsatkichga ega, kambag'allik darajasi eng past hududlarga Toshkent viloyati, poytaxt shahar va Navoiy viloyati mansub. O'zgarish bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki Sirdaryo, Toshkent va Jizzax viloyatlari shiddat bilan kambag'allikdan chiqishga intilayotgan bo'lsa, aksincha Farg'ona va Navoiy viloyatlarida kambag'allik darajasi ortganligini ko'rish mumkin.

Hududlar bo'yicha kambag'allik darajasining qisqarishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ijobiy tendensiyasini ko'rsatadi. Biroq, ba'zi hududlarda bu jarayon sekinroq kechmoqda, bu esa ushbu hududlarga qo'shimcha e'tibor qaratishni talab etadi. Kambag'allik darajasini yanada kamaytirish uchun iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mahalliy loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasining 2020–2024-yillar oralig'idagi hududiy iqtisodiy rivojlanishiga oid chuqur tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiy sur'atlari ijobiy bo'lsa-da, viloyatlar kesimida hali ham mavjud bo'lgan tafovutlar dolzarbligicha saqlanib qolmoqda.

¹ Muallif ishlanmasi

Tadqiqotda yalpi hududiy mahsulot, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, bandlik darajasi va kambagʻallik kabi asosiy koʻrsatkichlarning oʻzgarish dinamikasi statistik usullar yordamida baholandi.

Tahlil natijalari Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyatining iqtisodiy jihatdan yetakchi hududlar qatoriga kirishini, aksincha ayrim chekka hududlar, xususan Sirdaryo, Jizzax va Qoraqalpogʻiston Respublikasida iqtisodiy koʻrsatkichlarning nisbatan past darajada ekanini koʻrsatdi. Shuningdek, bandlik darajasidagi sezilarli farqlar, daromadlar oʻrtasidagi nomutanosiblik va kambagʻallik darajasining hududiy oʻzgaruvchanligi Oʻzbekistonda hududlararo iqtisodiy muvozanatni taʼminlash yoʻlida hali yechimini kutayotgan masalalar mavjudligini koʻrsatdi.

Adabiyotlar sharhiga asoslangan tahlillar shuni koʻrsatadiki, xalqaro tajribada hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishda sektorlararo muvozanat, mahalliy boshqaruvning mustahkamlanishi va investitsiyalarning oqilona taqsimlanishi muhim omillar sifatida qayd etiladi. Xususan, transport infratuzilmasini yaxshilash, sogʻliqni saqlash va taʼlim xizmatlariga teng kirish imkoniyatini yaratish orqali iqtisodiy tenglikni kuchaytirish mumkinligi aniqlangan [1], [8], [10].

Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida keyingi yillarda erishilgan yutuqlar, ayniqsa kambagʻallik darajasining kamayishi, iqtisodiy islohotlarning barqaror ijobiy natijalar berayotganidan dalolat beradi. Biroq, bu natijalarni mustahkamlash va barcha hududlarga birdek yoyish uchun kompleks va hududga moslashtirilgan yondashuv zarur.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Hududiy-iqtisodiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish – Har bir viloyatning tabiiy, mehnat va infratuzilma resurslariga asoslangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Bu ishlab chiqarish klasterlari va logistik markazlarni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Tadbirkorlikni hududlar kesimida qoʻllab-quvvatlash – Chekka hududlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni ragʻbatlantiruvchi imtiyozlar tizimi, "Bir mahalla – bir mahsulot" kabi dasturlar orqali iqtisodiy faollikni oshirish mumkin.
- Bandlik siyosatini maqsadli diversifikatsiya qilish – Hududlar boʻyicha kasbiy tayyorgarlik markazlarini tashkil etish va yangi ish oʻrinlarini yaratish uchun ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish lozim.
- Hududiy kambagʻallikni monitoring qilish va mahalliy loyihalarni kuchaytirish – Har bir hududning ijtimoiy infratuzilmasi va daromad manbalarini hisobga olgan holda kambagʻallikka qarshi kompleks dasturlar ishlab chiqilishi lozim.
- Statistik va analitik monitoring tizimlarini rivojlantirish – Real vaqt rejimida ishlaydigan hududiy rivojlanish indikatorlari tizimini yaratish orqali ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi.

Ushbu takliflar Oʻzbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyalariga mos boʻlib, "Yangi Oʻzbekiston – 2030" yoʻnalishlarida belgilangan maqsadlarga erishishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Har bir hududning oʻziga xos

xususiyatlarini hisobga olgan holda resurslardan oqilona foydalanish orqali hududlararo iqtisodiy tenglikka erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aguenane, N. E. (2020). Regional Disparities In Human Development: The Case Of Moroccan Regions.
2. Aholining umumiy daromadlari va minimal iste'mol harajatlari qiymatlari (2023-yil yanvar-dekabr).
3. BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining «Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma»sidan, 2017-yil Nyu-York, Jyeneva.
4. Davlat statistika qo'mitasi Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi. J.Xakimov. 2017-yil.
5. Gafurov, B. B. (2022). Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasidan samarali foydalanish yo'llari. O'zbekiston statistika axborotnomasi, (4).
6. Ivanova, M. B. va Glukhov, Y. A. (2022) Territorial differentiation of the socio-economic development of Republic of India. RUDN Journal of Economics, 30(1), 93-109. <https://doi.org/10.22363/2313-2329-2022-30-1-93-109>.
7. Kuvandikov, Sh. O. (2020). The role of family entrepreneurship in the development of the regions of Uzbekistan. Экономика и предпринимательство, (124), 443-445. <https://doi.org/10.34925/eip.2020.124.11.080>.
8. Lambisia, A. W. (2022). Regional economic development (pp. 101–119). Routledge eBooks. <https://doi.org/10.4324/9781003201892-9>.
9. Livchits, V. (2023). Regional differences in the Russian Federation: An empirical analysis of the influence of territorial localization of industry sectors on the level of regional economic activity. Экономика i Matematičeskie Metody, 59(3), 77. <https://doi.org/10.31857/s042473880026994-2>.
10. Luo, K. (2012). Regional economic development disparity of China: An application of spatial field. Retrieved from https://en.cnki.com.cn/Article_en/CJFDTOTAL-DLKX201209005.htm.
11. Luca, D., & Rodríguez-Pose, A. (2015). Distributive politics and regional development: Assessing the territorial distribution of Turkey's public investment. Journal of Development Studies, 51(11), 1518-1540. <https://doi.org/10.1080/00220388.2015.1028536>.
12. Mahmudov, T. D. (2023). Economic and statistical analysis of regional economic development. Экономика и предпринимательство, (159), 425-430. <https://doi.org/10.34925/eip.2023.159.10.085>.
13. Musagaliev, A. J., & Abraev, T. E. (2022). General analysis of services in the economic development of regions in Uzbekistan. Asian Journal of Advances in Research, 5(1), 1244-1249.
14. Pawlas, I. (2021). Economic activity in peripheral regions – a case of Poland. Regional Formation and Development Studies.
15. Qodirov, F. (2024). Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari. Aktuar Moliya va Buxgalteriya Hisobi Ilmiy Jurnali, 4(09), 178-183.

16. Rahimova, Dilfuza (2000-2005). "Bandlik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent.
17. Shao, J. (2023). Analysis of sustainable development of Uzbekistan's regional economy. <https://doi.org/10.47390/sp1342v3i11y2023n09>.
18. Shchur, A., & Timonin, S. (2021). Center-peripheral differences in life expectancy in Russia: A regional analysis. *Demographic Review*, 7(5), 63-83. <https://doi.org/10.17323/DEMREVIEW.V7I5.13198>.
19. Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
20. Toshkent viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati UZSTAT jurnalidan
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PQ-300-son qaroriga 2a-ILOVA.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 28-yanvar PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabr PF-223-son Farmoniga 2-ILOVA <https://lex.uz/uz/docs/-7271094> .
24. (1-band "b" kichik bandining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyun PF-92-son Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son).
25. Буряченко, А., Левченко, К., Стетсенко, В., & Бірюк, С. О. (2024). Economic inequality of the regional development of poland, spain and ukraine. *Finansovo-Kreditna Diâl'nist': Problemi Teorii Ta Praktiki*, 1(54), 331–347. <https://doi.org/10.55643/fcaptop.1.54.2024.4236>
26. Tojiyeva, M. (2024). KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILIDA EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANING QO'LLANILISHI. *University Research Base*, 268-272.09:34
27. Tojiyeva, M.M. (2024). O'ZBEK IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH USTUVOR MASALASI SIFATIDA. *University Research Base*, 439-443.09:34



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**